

**MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASBGA TO'G'RI YO'NALTIRISHDA
METODIKALARNI QO'LLASH VA SAMARALI YO'NALISHLARNI TAKLIF ETISH****Turexanova Nigora Qo'ychiboy qizi****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****Pedagogika ta'lim fakulteti****Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari****elurodovhojiakbar@gmail.com****Xudayberdiyev Oybek Gafurovich****Ilmiy rahbar: Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.18383874>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab bitiruvchilarini kasbga to'g'ri yo'naltirish, individual qobiliyatlarini, qiziqishlarini aniqlagan holda, psixologik metodlardan foydalanish yoritilgan. Kasb tanlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar, kasbiy yo'naltirishda bir nechta muqobil yo'nalishlar berishning ahamiyati tahlil qilindi. Metodikalar asosida olib borilgan kasbga yo'naltirish bitiruvchilarning ongli ravishda, boshqalarning qistovisiz yoki shunchaki majburlikdan emas o'zi qiziqqan, qobiliyati bor kasblarni tanlashi kelajakda kasbiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida batafsil yoritildi.

Kalit so'zlar: Maktab bitiruvchilari, kasbga yo'naltirish, kasb tanlash, metodikalar, qobiliyat, qiziqish, moslashish.

Asosiy qism: Hozirgi kunda ko'ryapmizki, kundan kunga kasblarning xilma xilligi oshib bormoqda. Mehnat bozori tez o'zgarayotgan sharoitda maktab bitiruvchilarini kasbga to'g'ri yo'naltirish psixologlar va pedagoglarning muhim vazifalaridan biridir. Bitiruvchilarning kasb tanlashda notog'ri qaror qabul qilishi kelgusida kasbiy qoniqmaslik, o'qishni tashlab ketish, kasbga moslasha olmaslik yoki mutaxassisligini almashtirishga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida albatta bekor vaqt ketkazish bilan barobardir. Shu sababdan o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy yo'naltirish ishlarini tashkil etish dolzarb hisoblanadi. Ilmiy manbalarda kasbga yo'naltirish shaxs rivojlanishining muhim bosqichi sifatida talqin qilinadi.

Notog'ri kasb tanlash shaxsda motivatsiyaning pasayib ketishiga, kasbiy qoniqmaslikga, mehnat samaradorligining tushishiga olib keladi. Bu hattoki atrofidagi insonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Shu sababli kasb tanlashda o'quvchining temperamentini, qobiliyatini, qiziqishini va shaxsiy qadriyatlarini hisobga olish zarur. Kasbga yo'naltirish ishiga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiy - amaliy tizimi sifatida qaralishi lozim. Kasb tanlashda har bir shaxsning individual xususiyatlari, xalq ho'jaligi manfaatlari nazaridan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash zarurati kabi omillar hisobga olinishi kerak.

Respublikamizda bosqichma - bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqqan holda kasb - hunarga yo'naltirish sohasida mavjud bo'lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalarni ta'lim islohatlari bosh maqsadidan kelib chiqqan holda yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirishdan iboratdir. Kasbga yo'naltirish - bu yoshlarning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlariga va jamiyatning turli xil kasblarga bo'lgan ehtiyojiga mos, ularni asoslengan kasb tanlashga yordam beradigan maqsadli faoliyatidir. U fanlararo rivojlanuvchi nazariya va amaliyotning birligi asosida bo'lib, faqat o'quvchilar bilan o'quv tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shunda asosan rolni nazariya egallaydi. Aynan shu nazariyada u yoki bu g'oya shakllanadi, u amaliy ishni ilmiy - amaliy ishga

aylantiradi. Kasb – hunarga yo‘naltirish nazariyasi bu ikki jarayonning bir – biriga bog‘liqligi qonuniyatlari to‘g‘risida to‘liq tasavvur beradigan ilmiy bilimlarni tashkil etish shaklidir, bu yoshlarni shaxsiy qiziqishlari, layoqat va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo‘llashdir.

E.A.Klimov kasbiy faoliyatni sifatli, tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o‘zini namoyon etish sohasi deb ta’riflaydi. Yana bir ta’rifni keltiramiz: - “Jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo‘lib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo‘lgan natija mas’uliyatlarni yetkazishni ta’minlab berishi kerak bo‘ladi” nisbatan tor ta’rifni esa V.G.Makushin keltiradi, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Mavjud ta’riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o‘zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub’ektiv holatidir - deb hisoblagan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko‘p darajali va ko‘rinishli tizimli psixik shaklga ega bo‘lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko‘rinishi asosiy o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog‘liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko‘zda tutadi.

Metodologik fikr: Bugungi kunda maktab psixologlari va pedagoglarining eng muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarga kasbiy o‘zini o‘zi belgilashda axborot va psixologik – pedagogik yordam ko‘rsatishdir. Kasbiy o‘zini o‘zi belgilashni qo‘llab quvvatlash faol o‘rganish usullarini talab qiladi, bu esa o‘quvchilarning to‘liq ishtirok etishini ta’minlaydi. Turli shakllar ya’ni mantiqiy vazifalar, muammolarni hal qilish, ijodiy ishlar juda muhimdir. Samarali shakllarga biznes o‘yinlari, ta’lim muloqotlari, miya hujumi sessiyalari va munozaralar kiradi. Ushbu shakllar yuqori darajadagi ishtirokni, o‘quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirishni, chuqur shaxsiy o‘rganishni va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlaydi. Rivojlantiruvchi ta’lim muhitida keng imkoniyatlar juda muhimdir. Shu sababli maktablarda kasbga yo‘naltirishning metodologik yondashuvlarini qo‘llash kerak. Misol tariqasida oladigan bo‘lsak,

Maktab psixologi tomonidan E.A.Klimovning kasblar klassifikatsiyasi metodi orqali kasbiy yo‘naltirishda o‘quvchining qaysi yo‘nalishga moyilligini aniqlash mumkin. E.A.Klimov kasblarni mehnat predmetiga ko‘ra 5 guruhga ajratgan. Bular: inson – tabiat; inson – texnika; inson – inson; inson – belgilar tizimi; inson – badiiy obraz. Ushbu 5 ta kasb guruhi asosida tuzilgan savollarni o‘quvchilarga berib, masalan : insonlar bilan muloqot qilishni yoqtiradigan o‘quvchilar inson – inson; texnik qurilmalar bilan ishlashni yoqtiradigan o‘quvchilar inson – texnika guruhiga kiritiladi. Shu bilan birga, kasbiy moyillikni aniqlash testlari o‘tkazib, o‘quvchining qaysi faoliyat turida o‘zini qulay his qilishini aniqlaydi. Shuningdek, o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan savol – javob, test metodikalari bilan cheklanib qolmay, har bir o‘quvchi bilan psixologik suhbatlar olib borishi, bu suhbat jarayonida o‘quvchining maqsadlari bor yo‘qligi, uning hayotiy re‘jalari bu re‘jalariga oila a‘zolari, xususan ota – onasi qanday qarashi haqida gaplashilib uning shaxsiy qadriyatlarini aniqlaydi.

Kasb tanlashga bir necha muqobil variantlar taklif qilib, bunda berilgan variantlar ichidan o‘quvchining o‘zi ma’suliyatni zimmasiga olib kasb tanlashi uni yanada ma’suliyatliroq qiladi hamda shu kasbga nisbatan mehrini uyg‘otadi. Kasbiy o‘zini o‘zi belgilashni qo‘llab quvvatlash

faol o'rganish usullarini talab qiladi. Shu o'rinda o'quvchilarni qobiliyat va intellektlarini aniqlashda yordam beradigan yana bir metodikani keltirib o'tsam: Amerikalik psixolog Govard Gardner 1983- yilda ko'p qirrali intellekt nazariyasini ilgari surgan. Gardnerning bu nazariyasini maktab bitiruvchilarining kasb tanlashida, individual qobiliyatlarini aniqlashda, rivojlantirish va to'g'ri yo'nalish berishda qo'llasak nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Ushbu yondashuv maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirishda, individual intellekt tiplarini aniqlash va rivojlantirish orqali to'g'ri kasb tanlashda yordam beradi. Gardner intellekt tiplarini keltirib o'tadigan bo'lsam, bular:

1. Lingvistik (til) intellekti – nutqi ravon, so'zlari orqali o'zgalarga ta'sir o'tkazuvchi, yozishni, hikoya qilishni yoqtiruvchilar ya'ni: jurnalist, yozuvchi, o'qituvchi, huquqshunos, notiq kabilar.
2. Mantiqiy – matematik intellekt – mantiqiy fikrlashni, matematik masalalarni yechishni, tahlil qilishni yaxshi ko'ruvchilar, ya'ni: muhandis, matematik, dasturchi, iqtisodchi kabilar.
3. Vizual – fazoviy intellekt – tasavvuri boy, chizishni, dizayn yaratishni sevuvchilar, ya'ni: arxitektor, dizayner, rassom kanilar.
4. Musiqiy intellekt – musiqachi, bastakor, musiqadan dars beruvchilar.
5. Jismoniy – kinestetik intellekt – sportchi, raqqos, aktyor, jarroh, hunarmand.
6. Shaxslar aro intellekt – muloqot qilishni yaxshi ko'radigan, ijtimoiy hayotda yetakchi insonlar ya'ni, psixolog, pedagog, menejer, HR mutahassis kabilar.
7. Shaxs ichki intellekt – psixolog, tadqiqotchi, murabbiylarni bunga misol qilib keltirishim mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan metodikalardan o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda psixolog foydalanishining afzalliklari bisyor. Birinchidan, ikkala metodikada ham guruh bo'lib ishlash mumkin. Ya'ni sinfda 25 nafar o'quvchi bo'lsa, 25 nafaridan bir vaqtning o'zida ushbu testni olishi qulaylik yaratadi. Ikkinchidan, ushbu testlar yillar davomida sinalib kelayotgan validlik darajasi yuqori bo'lgan yaxshi samara beruvchi metodikalardir. Uchinchidan, savollar juda sodda tuzilgan bunda maktab o'quvchilari javob berishga qiynalishmaydi. Metodikalar o'tkazilib, javoblar hisoblab chiqilgandan so'ng, psixolog o'quvchining sinf rahbari bilan ushbu natijalar yuzasidan qayta ko'rib chiqish ishlarini tashkillashtirib, o'quvchilarning qay darajada testni holis yechishganini aniqlashi, ikkilanishlar keltirib chiqargan o'quvchilar bilan boshqa metodikalar qo'llash orqali aniqlik kiritishi zarur bo'ladi. Lekin faqatgina testlarga ishonib qolmaslik kerak. Chunki yuqorida keltirib o'tilgan metodikalarning ma'lum kamchiliklarini V. E. Govrilov ko'rsatib bergan. Masalan bir guruhdagi kasblar ishchiga qarama qarshi talablarni oldiga qo'yuvchi kompanentlarni o'z ichiga oladi, bu esa kasbga layoqatlilik belgilarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Tasniflashning yana bir kamchiligi shundaki, kasblar olami nihoyatda o'zgaruvchan, shunga ko'ra kasblarning mehnat mazmuni ham o'zgaruvchan xususiyatga ega.

Ba'zi hollarda kuzatiladiki, maktab bitiruvchilari ichida 100 % ko'rsatkichda albatta hamma ham oliygohga kira olmasligi mumkin. Shunday paytlarda bola shashtining so'nishi mumkinligini va hayotga ishtiyoqi pasayib, o'ziga bo'lgan ishonchi pasayib ketishini hisobga olgan holda ham o'quvchilar bilan oldindan ruhiy tayyorgarlik uchun suhbatlar olib borish kerak bo'ladi. Bu suhbatlar jarayonida o'quvchiga bir necha muqobil variantlar berish muhim ahamiyatga ega. Misol tariqasida keltirib o'tadigan bo'lsak, bitiruvchi shu yili o'zi tanlagan qiziqqan Oliygo'ha kira olmadi, deylik bu katta muammo emasligi yana bir yil kuchliroq tayyorgarlik ko'rib, keying yil yanada yuqori ballar bilan shu Oliygo'ha kirib ketishi mumkinligi haqida yoki hozirgi kunda xususiy Universitetlar ham ko'pligi ushbu Universitetlarda o'qishini davom ettirishi mumkinligi, hunar egallash uchun shogirdlikka tushishi, yosh tadbirkorlarga berilayotgan kata

imkoniyatlardan foydalanib, tadbirkorlik qilishi haqida oldindan tushuntirish ishlari olib borish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda maktab bitiruvchilarini kasbga to'g'ri yo'naltirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim vazifalardan biridir. Har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyat, qiziqish va intellekt turiga ega bo'lib, bu jihatlarni hisobga olmasdan tanlangan kasb kelajakda norozilik, kasbiy qiyinchilik va o'zini topa olmaslik holatlariga olib kelishi mumkin. Klimov yondashuvi orqali shaxsning "inson-inson", "inson-texnika", "inson-tabiat", "inson-belgilar tizimi" va "inson-badiiy obraz" yo'nalishlariga moyilligi aniqlansa, Gardner nazariyasi har bir o'quvchida bir nechta intellekt turlari mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa kasb tanlashda faqatgina fanlardan olgan baholarga tayanish yetarli emasligini isbotlaydi. Shuningdek, psixologik metodikalar, testlar va suhbatlar orqali o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va ichki imkoniyatlarini aniqlash ularni ongli va mustaqil kasb tanlashga tayyorlaydi. To'g'ri yo'naltirilgan o'quvchi o'z kuchiga ishonadi, kelajagini aniq tasavvur qiladi va jamiyatda o'z o'rnini topa oladi. Maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish jarayoni individual yondashuv, ilmiy asoslangan metodikalar va zamonaviy psixologik nazariyalar asosida olib borilishi zarur. Ana shundagina yoshlar o'z qobiliyatlariga mos kasb tanlab, barkamol shaxs va yetuk mutaxassis sifatida voyaga yetadilar.

Bugungi kunda kelajagimiz bo'lmish yoshlarni o'smir davridan to'g'ri yo'naltirishimiz zarur. Bu har tomonlama kerak, ya'ni birinchidan bolalarning bekorchilikdan turli yomon illatlarga berilmasligi, kelajakda oilasi, yurti uchun nafi tegadigan inson bo'lib ulg'ayishi uchun, Jamiyatimizda munosib o'rin egallashi, hurmatga sazovor bo'lishi uchun hozirdan ularga to'g'ri yo'nalish berish, to'g'ri kasb tanlashlarida biz psixologlar, pedagoglar va ota – onalar bilan birlashib harakat qilishimiz darkor. Kelajakda o'z kasbini sevib, mehr berib, turli yutuqlarga erishishsa bu Yurtimiz ravnaqi uchun qo'shgan ma'lum bir hissamiz bo'ladi. Buning uchun avvalo maktab psixologi har bir bitiruvchi bilan individual shug'ullanib, harakterini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini turli metodlar yordamida aniqlashi, o'quvchi bilan o'zaro erkin suhbatlashib, maqsadlarini aniqlashi, zarur hollarda hattoki ota – onasi bilan suhbatlar uyushtirib, bolaga to'g'ri yo'nalish berishi kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. E.G'.G'oziev "Yosh va Pedagogik psixologiya".
2. Davletshin.M (2002) Umumiy Psixologiya. TDPU.
3. www.ziyonet.uz.
4. Psixologiya kafedrası katta o'qıtuvchısı Xudayberdiyev Oybek Gafurovich ma'ruzasi.